
Qishga tayyorgarlik – muhim vazifa

Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan 2019-2020-yillar kuz-qish mavsumida baxtsiz hodisalarni oldini olish, fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mol-mulklarini saqlanishini ta'minlash maqsadida yong'in xavfsizlik xizmati, energiya resurslari va tabiiy gaz ta'minotchilari hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Tabiiy gazdan foydalanishda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya etish, isitish moslamalaridan xavfsiz holda va muvofiqlik sertifikatlari mavjud bo'lgan hollarda tegishli mutaxassislarni xulosasini olgandan so'nggina foydalanish yuzasidan iste'molchilarni huquqiy madaniyatini oshirish borasida huquqiy targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, kuz-qish mavsumi kelishi munosabati bilan ob-havoning keskin pasayishi natijasida xonadonlarni isitish maqsadida iste'molchilar tomonidan elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etmasdan, muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lmagan qo'lbola isitish moslamalaridan va gaz plitalaridan foydalanishlari oqibatida turli xildagi baxtsiz hodisalarning kelib chiqish holatlari ko'paymoqda.

Shunga ko'ra, baxtsiz hodisalarni oldini olish, fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mol-mulklarini saqlanishini ta'minlash maqsadida energiya resurslari, xususan gazdan foydalanishda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya etish, isitish moslamalaridan xavfsiz holda va muvofiqlik sertifikatlari mavjud bo'lganda mutaxassislar xulosasini olgandan keyin foydalanish lozim bo'ladi.

Farhodjon XOJIBOYEV,

MIB Qo'shtepa tuman bo'limi Qarzdorlik sudgacha undirish sho'basi inspektori

2019-12-16 18:22:01